


# ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483-1530)



- **Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tug‘ildi.**
-

- **Otasi temuriyzoda Umarshayx Farg‘ona viloyati hukmdori edi.**

- **Onasi Qutlug‘ Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi.**

- **Bo‘lajak shoir 12 yoshida ekan, otasi bevaqt halok bo‘lib, *Farg‘ona hokimligi uning zimmasiga tushadi.***

# UNUTMANG!

- 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabt etadi.

- 16 yoshida bu azim shaharni tashlab chiqishga majbur bo‘ladi.

- Keyin ham 2 marotaba bu shaharni egallashga muvaffaq bo‘ldi.

- 1503-yilda Jayhun (Amu)ni kechib, Xurosonga o‘tdi. Kobul va G‘aznani qo‘lga kiritdi.

- 1526-yilda esa Hindistonni zabt etib, katta saltanat o‘rnatdi.



- **1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etdi**.
- ***Keyinroq uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko‘chiriladi.***

# Agra. “Orom bog’i”. Bobur Mirzo ilk marta shu yerga dafn etilgan.





БОБУРИЙЛАР
ШАЖАРАСИ
БАҲОДИРШОҲ II
ҳ.1837-1858
АКБАР II
ҳ.1806-1837
ШОҲ - ОЛАМ II
ҳ.1760-1806
ОЛАМГИР II
ҳ.1754-1759
БЕДОРБАХТ
в.1788
АХМАДШОҲ
ҳ.1748-1754
МУҲАММАДШОҲ
ҳ.1719-1748
ФАРРУХСИЁР
ҳ.1713-1719
ЖАҲОНДОРШОҲ
ҳ.1712-1713
ХУЖАСТААХТАР
ҳ.1712
РАФИУШШАЪН
в.1712
АЪЗИМУШШАЪН
ҳ.1712
ШОҲЖАҲОН III
в.1760
МУҲИСУННАТ
АКБАР
ҳ.1704
АЪЗАМ
ҳ.1707
БАҲОДИРШОҲ
ҳ.1707-1712
АВРАНГЗЕБ
ҳ.1658-1707
ДОРОШИКУҲ
в.1659
ШОҲЖАҲОН
ҳ.1627-1658
ПАРВЕЗ
в.1627
ХУСРАВ
в.1622
ДОНИЕЛ
в.1601
МУРОД
в.1600
ЖАҲОНГИР
ҳ.1605-1627
АКБАР
ҳ.1556-1605
ҲУМОЮН
ҳ.1530-1539
ҳ.1555-1556
КОМРОН
Заҳириддин Муҳаммад
БОБУР
НОСИР
ЖАҲОНГИР
УМАРШАЙХ
АБУСАИД
СУЛТОН
МУҲАММАД
МИРОНШОҲ
1405-1408
АМИР ТЕМУР
ҳ.1370-1405



Dehli. Boburiylar avlodi. Qamarjahon Zebunniso Begim



Bobur avlodlari. Qamarjahon Zebunniso Begimning qizi Pokiza Sulton Begim

# Haydarobod. Boburiylar avlodi Ziyovuddin Tusiy.



# Haydarobod. Laylo Ummaxoni xonadonida



# Andijon.
# Bobur uy - muzeyi





# Toj mahal haqida nima bilasiz?

# BILIB OLING

- **Tojmahal** - Hindistondagi boburiylar sulolasi davriga oid me’moriy yodgorlik. Agra shahri yaqinidagi Jamna daryosi bo‘yida Shoh Jahon suyukli xotini Arjumandga atab qurdirgan.
- 1631-1652-yillarda qurilgan.
- Taxminan 20 ming ishchi qurilish ishlari bilan band bo'lgan;
- 1000 ortiq fillar Agra shahridan 320 km uzoqda joylashgan tosh yo'naladigan yerdan marmarlarni keltirgan.

# • Bobur ikki she’riy to‘plam — devon tuzgan.

- Bobur o‘zbek va fors tillarida ijod etgan zullisonayn shoirdir. U ona tilida yozgan she’rlarini to‘plab, 1519-yilda Kobulda, 1528 - 1529- yillarda Hindistonda devonlar tuzgan.
- Bu ikki to‘plam o‘sha joylar nomi bilan «Kobul devoni», «Hind devoni» deb ataladi. Kobul devoni topilgan emas.

- *Saqlanib qolgan she'rlarining soni 400 dan ortiq.*

- Shundan 119 tasi g'azal, 231 tasi ruboiy.
- Shuningdek, shoir devonidan tuyuq, fard, masnaviy, qit'a, muammo kabi janrlar ham joy olgan.

# Bilib oling!

- **Ruboiy arabcha so‘z bo‘lib, to‘rtlik degani.**

- **Sharqda keng tarqalgan she’r turi, lirik janr. To‘rt satrdan iborat bo‘ladi. Ko‘pincha 1-, 2-, 4- satrlari qofiyalanib keladi.**

# Eslab qoling

Qofiya

- Misra oxiridagi ohangdosh so‘zdir.

Radif

- Misra oxiridagi takrorlanuvchi so‘zdir.

# NAMUNA:

- Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
- Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidur.
- Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,
- Har kimki, yomon bo‘lsa, jazo topqusidur.

- *Qofiyadosh so‘zlar:* vafo—jafo—jazo: 1-, 2-, 4-satrlar o‘zaro qofiyalanyapti.
- Demak, qofiyalanish tizimi: a-a-b-a.

- *Radif*— topqusidur

# RUBOIYLARDAN NAMUNALAR

Quyidagi ruboiylarning ma’nosini sharhlang.

Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki ish muyassar bo‘lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig‘a ketsa kishi.

**Kim bor anga ilm tolibi — ilm kerak.**
**O‘rgangani ilm tolibi ilm kerak!**
**Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo‘q,**
**Men bormen ilm tolibi — ilm kerak.**



**Ko‘pdin berikim yor-u diyorim yo‘qtur,**
**Bir lahza-u bir nafas qarorim yo‘qtur.**
**Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,**
**Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur.**

**Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi,**
**Shod etmas emish ko‘ngulni mehnatda kishi.**
**Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh,**
**G‘urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.**

# Bilimingizni sinang!

- Ruboiy haqida ma’lumot bering.
- «Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi» ruboiysida nega shoir o‘zini «tole’siz» (baxtsiz) hisoblaydi? Uning nazaridagi baxtli odam kim?
- «Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur» ruboiysi mazmunidan kelib chiqib, shoirning adolat haqidagi qarashlari to‘g‘risida nima deya olasiz?
- «Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen» ruboiysida qanday fikr ilgari surilmoqda? Shoir nima demoqchi?

# E'TIBORINGIZDAN XURSANDMIZ!